



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI Q A R O R I

2023 - yil 19 - yanvar

VI-56-6-4-0-K/23

Qashqadaryo viloyati hokimligi

Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida viloyat hokimi stipendiyasini joriy etish to'g'risida

Hurmatli Prezidentimizning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish, 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari iqtidorli talabalarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularni ta'lim olishda yanada yuqori ko'rsatkichlarga erishishiga undash maqsadida, shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashi vakillarining taklif va mulohazalarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari rektorlari, viloyat yoshlari va keng jamoatchlik vakillari hamda Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining viloyat hokimining stipendiyasini joriy etish to'g'risidagi tashabbuslari ma'qullansin.

2. Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida:

- viloyat hokimi stipendiyasi tanlovini o'tkazish to'g'risidagi Nizom **1- ilovaga;**

- viloyat hokimi stipendiyasi tanlovini o'tkazuvchi viloyat komissiyasi tarkibi **2- ilovaga;**

- viloyat hokimi stipendiyasi tanlovini o‘tkazuvchi viloyat apellyatsiya komissiyasi tarkibi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat komissiyasi (A.Qobilov)ga oliy ta’lim muassasalari (D.Nabiev, O.Bazarov, A.Normurodov, Z.Muqimov, A.G‘aniev, Sh.Mutalov)lar bilan birgalikda:

- talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan viloyat hokimi stipendiyasi tanlovi jarayoniga umumiy rahbarlikni amalga oshirish;

- talabalar o‘rtasida viloyat hokimi stipendiyasi tanlovi o‘tkazilishini faol targ‘ib qilish;

- g‘olib deb topilgan talabalarga 2023-2024 o‘quv yili uchun tasdiqlangan Nizom talablari asosida viloyat hokimi stipendiyasi to‘lanishini ta’minlash va har yili mazkur tanlovni tashkil etish topshirilsin.

4. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Qodirov viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasi (F.Yusupov) bilan birgalikda viloyat hokimi stipendiyasi sovrindorlariga tegishli stipendiyalarini viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan belgilangan tartibda ajratilishini ta’minlasin.

5. Viloyat G‘aznachilik boshqarmasi (G‘.Ahmedov) xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

6. Viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari (D.Nabiev, O.Bazarov, A.Normurodov, Z.Muqimov, A.G‘aniev, Sh.Mutalov)ga ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlasin.

7. Viloyat teleradiokompaniyasi (J.To‘ychiev), Qashqadaryo viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Nusurov), “Qashqadaryo” va “Новости Кашкадарьи” gazetalari tahririyati (K.Karimov)ga viloyat hokimi stipendiyasi tanlovini o‘tkazish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish, shuningdek tanlov g‘oliblari haqida turkum ko‘rsatuvlar, lavha, ocherk va maqolalar tayyorlash tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Qodirov va viloyat hokimining o‘rinbosari A.Qobilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Azimov

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023 yil 19 yanvardagi
VI-56-6-4-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Viloyat hokimi stipendiyasi tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida

NIZOMI

1. Umumiy qoidalar

Viloyatdagi oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan iqtidorli talabalarning ilm-fan va ijodkorlikka bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish, ularning tashabbuskorliklarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni Vatanga sadoqat va milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalashga e‘tiborni yanada kuchaytirish maqsadida viloyat hokimi stipendiyasi joriy etiladi.

Mazkur tartib viloyat hokimi stipendiyasi g‘oliblarini tanlash jarayoni, bosqichlari, uslublari, shakllari, nomzodlar bilimini baholash mezonlari, tanlovni o‘tkazuvchi ishchi organlari, ularning funksiyalari va huquq majburiyatlarini belgilaydi.

Viloyat hokimi stipendiyasi sovrindorlari tanlov yo‘li bilan aniqlanadi. Tanlov amaldagi qonunchilik hujjatlari va mazkur Nizomga rioya etgan holda o‘tkaziladi. Viloyat hokimi stipendiyasi bilan taqdirlash viloyat hokimi qarori bilan amalga oshiriladi.

2. Tanlovni o‘tkazuvchi ishchi organlar

Viloyat hokimi stipendiyasiga tanlov o‘tkazuvchi viloyat komissiyasi tarkibi xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi va o‘z faoliyatini oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etadi.

1. Viloyat komissiyasi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- viloyat hokimi stipendiyasiga o‘tkaziladigan tanlov jarayoniga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;
- tanlovning yakuniy bosqichini tayyorlaydi va amalga oshiradi;
- tanlovning oliy ta‘lim muassasasi bosqichida ushbu tartibga to‘liq amal qilinishini ta‘minlaydi.

2. Viloyat komissiya quyidagi huquqlardan foydalanadi:

zaruriyatga qarab zimmasiga yuklatilgan vazifalarning belgilangan muddatda va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun mutaxassislarni jalb etish va ishchi guruhlar tuzish;

oliy ta'lim muassasalaridan tanlovga daxldor bo'lgan qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish;

komissiya yig'ilishlariga tanlov jarayonini tashkil etishga aloqador bo'lgan rahbarlarni taklif etish va ularning hisobotlarini eshitish;

tanlov yakunlari bo'yicha qaror qabul qilish.

Komissiya yig'ilishi, unda jami a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Muhokama etilgan masalalar bo'yicha qarorlar komissiya a'zolarining ochiq, ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Komissiya qarori tavsiya xarakteriga ega bo'ladi. Komissiya yig'ilishlari yakunlari bo'yicha bayonnoma viloyat hokimiga taqdim etiladi.

3. Oliy ta'lim muassasasida tanlovni o'tkazish bo'yicha maxsus komissiya tegishli ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan tuziladi va uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

talabalar o'rtasida tanlovni e'lon qilish va tanlov shartlarining har bir talabaga yetkazilishini ta'minlaydi;

tanlovning belgilangan tartib va mezonlar asosida o'tkazilishini tashkil etadi;

tanlov yakunlari bo'yicha muqobillik asosida (har bir o'ringa uch nafardan) iqtidorli talaba yoshlarni tanlaydi va ularning nomzodlarini viloyat bosqichiga qatnashish uchun tavsiya etadi;

nomzodlarning viloyat bosqichidagi tanlovda ishtirokini ta'minlaydi.

3. Tanlov shartlari

Viloyat hokimi stipendiyasiga Qashqadaryo viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bo'yicha o'qiyotgan birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi kurs talabalari ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Tanlov 2 bosqichda o'tkaziladi. Har ikkala bosqichda, tanlov shaffof, adolatli va yuqori saviyada o'tkazilishi lozim.

Tanlov ishtirokchilaridan quyidagi hujjatlar talab etiladi:

pasport nusxasi hamda 2 tadan 6x4 va 10x15 o'lchamlaridagi fotosurat;

baholash qaydnomasi (fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan) nusxasi;

ilmiy (ijodiy) ishlar ro'yxati va ularning bosma nusxalari;

Xalqaro, respublika va viloyat miqyosidagi tanlovlarda erishgan yutuqlarini asoslovchi hujjatlarining belgilangan tartibdagi tasdiqlangan nusxasi.

Barcha hujjatlar ikki nusxada taqdim qilinadi. Hujjatlarning har bir to'plami jildga joylanadi, har bir jild muqovasida ishni taqdim qilgan muassasaning nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, ishning nomi ko'rsatiladi.

Viloyat hokimi stipendiyasi sovrindori bo'lgan talabaning tanlovda ikkinchi marta ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari, Nomli davlat stipendiyalari (Beruniy, Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Islom Karimov) va boshqa stipendiya tanlov g'oliblari viloyat hokimi stipendiyasi tanlovida ishtirok etmaydilar.

4. Tanlovda nomzodlar iqtidorini baholash

Tanlov ishtirokchilarining iqtidori quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

fan olimpiadalari va turli tanlovlardagi ishtiroki;

yo'nalishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish;

kamida ikkita e'lon qilingan ishlar (asarlar)ning mavjudligi;

xorijiy tillarini bilishi;

O'zbekiston tarixini bilishi;

Axborot texnologiyalaridan savodxonligi.

G'oliblar nomzodlarning iqtidorini ko'rsatuvchi hujjatlarni o'rganish, suhbatlar o'tkazish yo'li bilan tanlanadi. Iqtidor yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon o'tkazilishi ham mumkin.

Nomzodlarning iqtidori 100 ballik tizim bilan baholanadi. Eng ko'p ball to'plashga muvaffaq bo'lgan nomzodlar tanlov bosqichi g'olibi hisoblanadi.

Nomzodlarni baholash mezonlari:

t/r	Tanlov asosida saralash mezonlari	Maksimal ball	Izoh
-----	-----------------------------------	---------------	------

	Fan olimpiadalari va turli tanlovlardagi g'olibligi	20	Xalqaro-10 ball, Respublika – 10 ball, Viloyat yoki oliy ta'lim muassasasi - 5 ball.
	E'lon qilingan ishlar (asarlar, patentlar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar)ning mavjudligi	20	Asarlar, Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallardagi maqolalar va patentlar – 10 ball, Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilmagan mahalliy jurnallardagi maqolalar – 5 ball. Har bir ish bo'yicha ballar hammualliflar soniga bo'linadi.
	Chet tilini bilishi	20	B2 daraja (10 ball), C1 daraja (20 ball). Hamda ularga tenglashtirilgan sertifikatlar
	Yo'nalishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish	10	Xalqaro-3 ball, Respublika – 2 ball, Viloyat yoki oliy ta'lim muassasasi - 1 ball. Har bir ish bo'yicha ballar hammualliflar soniga bo'linadi.
	Fanlarni o'zlashtirish darajasi	10	Reyting daftarchasidagi ballning o'rtacha qiymati orqali hisoblanadi.
	O'zbekiston tarixidan bilimi	10	Suhbat orqali aniqlanadi.
	Axborot texnologiyalaridan savodxonligi	10	Maxsus test savollari orqali.

5. Tanlovni o'tkazish bosqichlari va muddatlari

Birinchi bosqich:

Tanlovning 1-bosqichda hujjatlar har yili 2-11-avgust kunlari qabul qilinadi. Har yili 22-avgust kuniga qadar oliy ta'lim bosqichi tashkil etilib, g'olib talabalar hujjatlari viloyat komissiyasiga taqdim etiladi. Tanlovni o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan maxsus komissiya tuziladi. Tanlov to'g'risida oliy ta'lim muassasasida e'lon beriladi va unda talabalarning ishtiroki uchun tegishli shart-sharoit yaratiladi.

Bu bosqich davomida tanlovda qatnashishi mumkin bo'lgan talaba yoshlarning iqtidori va bilimi guruh rahbarlari va oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan monitoring qilib boriladi. Tanlovda qatnashishi mumkin bo'lgan nomzodlar to'g'risida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchi va talabalarning takliflari oliy ta'lim muassasasi rektorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori tomonidan yig'ilib, oliy ta'lim muassasasi Kengashida ko'rib chiqiladi.

O‘quv yilining yakunlari bo‘yicha iqtidori va o‘zlashtirish darajasi qo‘yilgan talablarga javob beradigan talaba-yoshlar o‘rtasida tanlov o‘tkaziladi. Tanlov yakunlari maxsus komissiya tomonidan aniqlanadi va bu to‘g‘risida bayonnoma qabul qilinadi. G‘olib deb topilgan eng iqtidorli nomzodlarning hujjatlari viloyat komissiyasiga taqdim qilinadi. Barcha hujjatlar 20-avgust kundan kechiktirmasdan tanlovni o‘tkazuvchi viloyat komissiyalariga yetkaziladi.

Ikkinchi bosqich:

Tanlovning 2-bosqichi 24-25-avgust kunlari viloyat komissiyasi tomonidan oliy ta‘lim muassasalari komissiyasi taqdim etgan hujjatlarni o‘rganib chiqish va ushbu nizomda belgilangan uslub, shakl va mezonlar asosida nomzodlarning iqtidorini baholash maqsadida mutaxassislardan iborat ekspert guruhi tuzilishi mumkin. Ekspert guruhi tanlovning 14 nafar g‘oliblarini aniqlaydi.

Tanlovda sovrinli o‘rinlar oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar sonidan qat’iy nazar quyidagicha taqsimlanadi:

Qarshi davlat universiteti - 5 nafar, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti - 4 nafar, Shahrisabz davlat pedagogika instituti - 2 nafar, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti - 1 nafar, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali - 1 nafar, Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali - 1 nafar.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining qaroriga asosan stipendiya sovrindorlari miqdori ko‘paytirilishi mumkin.

Tanlov g‘oliblarini taqdirlash bo‘yicha viloyat hokimining qarori qabul qilinadi.

Apellyatsiya komissiyaning vazifalari

Apellyatsiya komissiyaning tarkibi xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi. Apellyatsiya komissiyaning tarkibi 3 kishidan iborat bo‘ladi va ular quyidagi tartibda bo‘ladi:

Apellyatsiya komissiyasi ishtirokchilarning shikoyatlarini tanlov natijasi e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat muddat ichida ko‘rib chiqadi.

Apellyatsiya komissiyasi qabul qilgan qaror tegishli ravishda bayon bilan rasmiylashtiriladi.

6. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish

Viloyatdagi oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida viloyat hokimi

stipendiyasiga tanlov o‘tkazish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar viloyat hokimi stipendiyasiga tanlov o‘tkazuvchi viloyat komissiyasi tavsiyasiga ko‘ra yiliga bir marta kiritilishi mumkin.

7. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

Tanlovning viloyat bosqichi g‘oliblariga “Viloyat hokimi stipendiyasi sovrindori” guvohnomasi beriladi va ularga har o‘quv yilining sentyabr oyidan iyun oyigacha har oy bazaviy hisoblash miqdorining 3 barobari miqdorida qo‘shimcha stipendiya to‘lanadi.

Tanlovning viloyat bosqichi g‘oliblariga viloyat hokimi tomonidan o‘z ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ishga joylashishlariga tavsiya beriladi.

G‘oliblarni taqdirlash marosimi har yili 10-sentyabrgacha amalga oshiriladi.

Viloyat hokimi stipendiyasi viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan moliyalashtiriladi.

Stipendiya har oyda oliy ta’lim muassasalari orqali sovrindorlarga yetkaziladi.

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023 yil 19 yanvardagi
VI-56-6-4-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

**Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida
viloyat hokimi stipendiyasi tanlovini o'tkazuvchi viloyat komissiyasi
TARKIBI**

A.Qobilov	-	Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, viloyat komissiyasi raisi
O.Movlanov	-	Viloyat hududiy Innovatsion rivojlanish boshqarmasi boshlig'i, viloyat komissiyasi raisi o'rinbosari
D.Nabiev	-	Qarshi davlat universiteti rektori
O.Bazarov	-	Qarshi muhandislik-iqtisodiyoti instituti rektori
A.Normurodov	-	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali direktori
A.G'aniev	-	Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori
Z.Muqimov	-	"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti rektori
Sh.Mutalov	-	Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali direktori
K.Yangiboev	-	Viloyat kasbiy ta'lim boshqarmasi boshlig'i
U.Oripov	-	Prezident ta'lim muassasalari agentligining viloyat hududiy bo'limi boshlig'i
B.Baysunov	-	Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i
S.Aripov	-	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i
I.To'raev	-	Viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i
L.Soadatova	-	Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari
T.Poyonov	-	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i
S.Saidov	-	Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari kotibiyati mudiri, viloyat komissiyasi kotibi

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023 yil 19 yanvardagi
VI-56-6-4-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

**Viloyat hokimi stipendiyasi tanlovining apellyatsiya komissiyasi
TARKIBI**

- | | |
|---------------------------------|---|
| Irkayev Abduraxim
Panjievich | - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi, Qarshi davlat universiteti kafedrası professori, viloyat komissiyasi raisi (kelishuv asosida) |
| Aminova Ziyoda
Aslonovna | - Viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (kelishuv asosida) |
| Ostanov O'rol
Suyunovich | - Viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i (kelishuv asosida) |

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.